



1-sinf

1991-yilgi tarixiy voqealar va O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining e'lon qilinishi

(2-hafta)

1-keys. "Men o'zim qilaman!"



Vaziyat:

Jasurbek 1-sentyabr — Mustaqillik bayrami kuni ko'chada hilpirayotgan O'zbekiston bayroqchasini ko'rib, ota-onasidan: "Ota, nega bugun hamma joyda bayroqlar ilingan?" deb so'radi.



Topshiriq

O'zbekiston bayrog'ining rasmini chizing va ranglarini to'g'ri bo'yang.

Savollar

1. 1-sentyabrda yurtimizda qanday katta bayram nishonlanadi?
2. Bayrog'imizda qanday ranglar bor va ular sizga nimalarni eslatadi?
3. Bayram kuni uyingizda yoki ko'chada nimalarni ko'rasiz?

2-keys. "Ozoda maktab va Vatan"



Vaziyat:

Boshlang'ich sinf o'quvchisi Malikaga ustozlari Vatanimiz o'zimiz yashaydigan uydan hamda maktabimizdan boshlanishini aytdi. Malika darsdan so'ng stoli ustini va sinfxonani tartibga keltira boshladi.



Topshiriq

"Mening sevgan maktabim" mavzusida chiroyli rasm chizib bering.

Savollar

1. Malika nega darsdan keyin partasini va xonasini yig'ishtirdi?
2. Vatanningizni va maktabingizni yaxshi ko'rishingizni qanday ko'rsatasiz?
3. Bayramlarda maktabingiz qanday bezatiladi?